


## 2020-yilning yanvar oyida Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2020-yilning yanvar oyida viloyat korxonalarini tomonidan 380,0 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 101,4 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish - 50,9 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash - 8,4 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 3,7 % ga o'sishi hisoblanadi. Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 99,6 % ni tashkil qildi.

### 2020-yilning yanvar oyida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish sur'ati - 108,4 foiz)
- Ishlab chiqaradigan sanoat (o'sish sur'ati - 99,6 foiz)
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish sur'ati - 103,7 foiz)
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish (o'sish sur'ati - 150,9 foiz)

## **Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.**

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2020-yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmi 18,1 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,8 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan ko'mir qazib olish - 1,9 martaga, chaqiq tosh - 2,1 martaga, tabiiy qum - 2,7 % ga oshdi, xom neft (95,6 %) pasaygan.



## **Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

<b>2019-yil yanvarida ishlab chiqarilgan</b>	<b>Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari</b>	<b>2020-yil yanvarida ishlab chiqarilgan</b>	<b>O'sish sur'ati, %</b>
--	--	--	--------------------------

**Ko'mir, ming t.**

10,0



19,2

191,5



**Neft, ming t.**

6,8



6,5

95,6



2019-yil yanvarida ishlab chiqarilgan	Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2020-yil yanvarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
--	---	--	-------------------------

Osh tuzi, ming t.

1,2



0,5

47,3



Qum, ming t.

2,2



5,9

2,7m



Chaqiq tosh, ming t.

6,4




13,5


210,8




Neft qazib olish, ming t.



### Ko'mir qazib olish, ming t.



### Chaqiq tosh qazib olish, ming t.




### Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2020-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 331,8 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 87,3 % ini tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'inining ulushi - 0,1 % ni (2019-yil yanvar oyida - 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 0,3 % ni (0,2 %), o'rta-quyi texnologiyali - 22,3 % (21,2 %) ni va quyi texnologiyali - 64,7 % (61,8 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi

2020 yil yanvar



2019 yil yanvar



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish - 44,9 % ni, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish - 26,2 % ni, mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasi - 2,4 % ni, yog`och va po'kak buyumlar, pohol va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog`oz va qog`oz mahsulotlari va mebel ishlab chiqarish - 2,5 % ni, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish - 0,3 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda bir qavatlari ip (tikuv iplaridan tashqari) - 1,8 martaga, un - 26,1 martaga, quyish uchun tayyor beton - 2,2 martaga, don ekinlarini qayta ishlashdan hosil bo'lgan kepak, chiqit va boshqa chiqindilar - 27,9 % ga, yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa (ko'p komponentli aralashmalardan tashqari) - 3,8 % ga oshdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda  
yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat  
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

<b>2019-yil yanvarida ishlab chiqarilgan</b>	<b>Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari</b>	<b>2020-yil yanvarida ishlab chiqarilgan</b>	<b>O'sish sur'ati, %</b>
<b>Paxta tolasi, ming t.</b>			
5,4		1,2	21,3
<b>Tozalangan kungaboqar yoki masxar yog'i, ming t.</b>			
3,8		0,0	-
<b>Un, ming t.</b>			
9,3		11,7	126,1
<b>Portlandsement, ming l.</b>			
0,0		4,3	-
<b>Dizel yoqilg'isi, ming t.</b>			
0,8		0,5	57,9





## **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 25,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,7 % ni) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar oyida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash - 22,1 % ga oshganligi kuzatildi.

### **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2019-yil yanvarida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
0,3	<b>Elektroenergiya, mln.kVt/s</b> 	0,004	25,8 
7,5	<b>Issiqlik energiyasi, ming Gkal</b> 	10,1	134,9 

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,2 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar - 2,6 martaga, elektr energiyasini sotish bo'yicha xizmatlar 1,7 martaga, xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 1,6 martaga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 3,0 % ga, oshganligi, gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar (62,1 %), suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari (17,9 %), boshqa guruhlarga kiritilmagan umumiy ishlarga mo'ljallangan boshqa uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlar (57,3 %) kamayganligi kuzatildi.

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2019-yil yanvarida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
---------------------------------------	---	---------------------------------------	-------------------

### Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm

0,2



0,2


103,0



### Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 120,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019-yilning yanvar oyiga nisbatan - 96,2 % ni tashkil etdi, jami sanoatdagi ulushi esa 31,6 % ni tashkil etdi.

#### 2020-yilning yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va o'sishi sur'ati



2019-yilning yanvar oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 51,4 % dan 2020-yilning yanvar oyida 54,0 % ga oshdi, nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 48,6 % dan 46,0 % ga pasayganligi kuzatildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,2 % ni (2019-yil yanvar oyida 3,3 %) tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha 2020-yilning yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab  
chiqarish hajmi va o'sish sur'ati**


	Mird.so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2019-yil yanvarga nisbatan o'sish, %
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>120,1</b>	<b>100,0</b>	<b>96,2</b>
Termiz sh.	24,2	20,1	112,6
tumanlar:			
Angor	4,0	3,4	101,8
Boysun	3,6	3,0	101,4
Denov	20,8	17,3	72,0
Jarqo'rg'on	8,3	6,9	101,5
Qumqo'rg'on	4,3	3,6	100,0
Qiziriq	3,1	2,6	102,2
Muzrabot	2,4	2,0	102,1
Oltinsoy	4,8	4,0	108,8
Sariosiyo	5,5	4,6	96,2
Termiz	6,9	5,7	120,0
Uzun	4,1	3,4	101,9
Sherobod	4,8	4,0	59,5
Sho'rchi	23,2	19,4	110,2

## Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 61,2 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 16,1 % ni tashkil etdi.

## Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning barchasi ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) korxonalar tomonidan amalga oshirildi.

### Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Termiz shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 21,4 %), Jarqo'rg'on (18,8 %), Denov (11,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.




## SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

### Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi


	Mlrd.so'm	2019-yil yanvarga nisbatan o'sish, %
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>380,0</b>	<b>101,4</b>
Termiz sh.	81,3	106,0
tumanlar:		
Angor	9,1	69,8
Boysun	6,9	106,9
Denov	44,9	80,8
Jarqo'rg'on	71,6	85,6
Qumqo'rg'on	17,4	87,6
Qiziriq	5,2	60,6
Muzrabot	14,2	164,7
Oltinsoy	6,9	122,1
Sariosiyo	28,6	133,9
Termiz	12,3	110,3
Uzun	11,4	102,0
Sherobod	34,6	189,1
Sho'rchi	35,7	93,3

## Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi

(2020-yil yanvar oyida 2019-yil yanvar oyiga nisbatan, %)




## Surxondaryo viloyati ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, %



Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora tadbirlar natijasida, Termiz shahri (jamiga nisbatan 21,4 %), Jarqo'rg'on (18,8 %), Denov (11,8 %) tumanlari sezilarli darajada sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi oshishiga imkon berdi.

Shu bilan birga, iste'mol tovarlari hajmini Termiz (2019-yil yanvar oyiga nisbatan 120,4 %), Sho'rchi (110,2 %), Oltinsoy (108,8 %), Qiziriq (102,2 %), Muzrabot (102,1 %) tumanlari va Termiz shahri (112,6 %) da sezilarli darajada oshdi.

### **2020-yil yanvar oyida hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va o'sishi ko'rsatkichlari**



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Termiz shahrida (556,3 ming so'm), Jarqo'rg'on (332,4 ming so'm), Sherbod (181,2 ming so'm), Sho'rchi (173,2 ming so'm), Sariosiyo (140,3 ming so'm), Denov (118,1 ming so'm), Termiz (114,1 ming so'm) va Muzrabot (101,3 ming so'm) tumanlarida ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 46,2 ming so'm bo'lgan holda, Termiz shahrida - 165,4 ming so'mni, Sho'rchi tumanida - 112,9 ming so'mni, Termiz tumanida - 63,7 ming so'mni, Denov tumanida - 54,7 ming so'mni va Jarqo'rg'on tumanida - 38,5 ming so'mni tashkil etdi.

**2020-yil yanvar oyida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, ming so'm**


	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol tovarlari
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>146,2</b>	<b>46,2</b>
Termiz sh.	556,3	165,4
tumanlar:		
Angor	69,2	30,7
Boysun	58,2	30,2
Denov	118,1	54,7
Jarqo'rg'on	332,4	38,5
Qumqo'rg'on	72,4	17,9
Qiziriq	30,3	17,9
Muzrabot	101,3	17,1
Oltinsoy	39,4	27,6
Sariosiyo	140,3	27,1
Termiz	114,1	63,7
Uzun	65,9	24,0
Sherobod	181,2	25,3
Sho'rchi	173,2	112,9

Shu bilan birga, iste'mol tovarlarining eng katta ulushi Termiz shahriga (viloyat iste'mol tovarlarining 20,1 %), Sho'rchi (19,4 %) va Denov (17,3 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

### **Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 194,9 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Ularning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 51,3 % ni tashkil etdi.

### **2020-yilning yanvar oyida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %**




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Boysun (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Oltinsoy (100,0 %), Uzun (100,0 %), Qiziriq (98,9 %), Termiz (92,5 %) va Angor (90,4 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush Sherobod (21,8 %), Muzrabot (28,2 %), Jarqo'rg'on (36,0 %), Sho'rchi (37,4 %) tumanlari va Termiz shahrida (38,5 %) kuzatildi.

### Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.


Bugungi kunda viloyatda 2715 ta korxona faoliyat yuritmoqda, shundan 558 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiyligi sonining 20,6 %) Termiz shahriga, 308 tasi (11,3 %) Denov tumaniga, 196 tasi (7,2 %) Termiz tumaniga va 190 tasi (7,0 %) Jarqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik (2020-yil 1-fevral holatiga)



2020-yil yanvar oyida viloyatda 64 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 14,1 foizi Termiz shahri, 18,8 foizi Sariosiyo tumaniga, 9,4 % Denov tumaniga va 9,4 % Muzrabot tumaniga to'g'ri keladi.

**Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni, birlik  
(2020-yil 1-fevral holatiga)**



**Sanoat statistikasi bo'limi**  
Aloqa telefoni: (76) 223-07-24